

**TILLARNI O'QITISH METODIKASI VA TA'LIM
TEXNALOGIYALARI**

Navoiy Davlat Pedagogika

Instituti Fakultetlararo

chet tillari kafedrasi o'qtuvchisi

Tashpulatova Nargiza Samartdinovna.

Navoiy Davlat Pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat xotin qizlar sporti yo'nalishi talabasi

Achilova Difuza

difuzaachilova86@email.com

Annotatsiya: Chet tillarini o'rganish va o'rgatish barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Vatanimiz-O'zbekistonda ham zamon talabiga aylandi. Chet tillarini o'rganish uchun bugun yoshlarga, qolaversa, barcha yurtdoshlarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar o'zining ijobiy natijasini isbotlab bormoqda, desak adashmagan bo'lamiz. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar qatorida bugun chet tillariga, ayniqsa, ingliz tiliga e'tibor kuchaymoqda. Nafaqat chet tillari misolida, balki ilm dunyosining barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlar, har jabhada yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunday ulkan bunyodkorlik ishlarining boshida yurtboshimiz muhtaram Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning ko'rsatgan jonbozliklari, yoshlarga bo'lgan e'tibor, kelajakka ishonch kabi tuyg'ular o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: texnologiya, metod, inovatsiya, ta'lim jarayoni, "Aqliy hujum", "Pinboard".

Annotation: Learning and teaching foreign languages has become the need of the hour in our country-Uzbekistan as well as in all developed and developing countries. It would not be wrong to say that the conditions created today for young people and all our compatriots for learning foreign languages are proving their positive results. Among the reforms carried out in our country, attention is being paid to foreign languages, especially English. Not only in the case of foreign languages,

but also in all areas of the world of science, serious changes and updates are being made on all fronts. Of course, at the beginning of such great creative work, the feelings of the honorable President Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev, attention to the youth, and confidence in the future are reflected.

Аннотация: Изучение и преподавание иностранных языков стало необходимостью времени в нашей стране-Узбекистане, а также во всех развитых и развивающихся странах. Не будет ошибкой сказать, что созданные сегодня условия для молодежи и всех наших соотечественников для изучения иностранных языков доказывают свою положительную эффективность. Среди реформ, проводимых в нашей стране, внимание уделяется иностранным языкам, особенно английскому. Не только в случае иностранных языков, но и во всех областях мировой науки происходят серьезные изменения и обновления по всем направлениям. Конечно, в начале такой большой созидательной работы отражаются чувства уважаемого Президента Шавката Миромоновича Мирзиёева, внимание к молодежи, уверенность в завтрашнем дне.

Ключевые слова: технология, метод, инновация, образовательный процесс, «Мозговой штурм», «Пинборд».

Key words: technology, method, innovation, educational process, "Brainstorming", "Pinboard".

Mamlakatimizda “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’grisida”gi PQ 1875-sonli hamda O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chor tadbirlari to’g’risida”gi PQ 5117-sonli qarorlarning qabul qilinganligi hozirgi kunda ta’lim tiziminingbarcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o’rganishni tashkil qilish,zamonaviy uqu- uslubiy materiallar bilan ta’minlashni yanada takomillashtirish,zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalaridan foydalanib,chet tillarni o’rgatish hamda o’rganilgan bilim,ko’nikmalarni mustaqil ravishda amalda qo’llashga o’rgatish chet tili o’qituvchisi zimmasiga katta ma’sulyat yukladi.Ushbu qarorlar ijrosi

o'qituvchidan nafaqat talabalarga dars berishni, balki talabalarning qiziqish va imkoniyatlarini inobatga olgan holda fan bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish lozimligiga e'tibor qaratishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasi (1997-yil, 29-avgustda) qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda, muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi 1875-sonli PQ qarori mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi PQ 4199-sonli qaroriga muvofiq ushbu maktablarda ta'lim jarayoni xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv-rejalari va dasturlari bo'yicha ingliz tilida amalga oshirilishi "STEAM ta'lim" dasturi joriy etilishi lozimligi belgilab berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qaror asosida, bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlashda inovatsion yondashuv va texnologiyalarni joriy etishni taqozo qilmoqda. Chet tili o'qitish metodikasi asoschisi akademik Lev Vladimirovich Sherbadir. Shuningdek bu sohada I.V Raxmonov, A.A Mirol'yubov, V.S Setlin, V.D. Arakin, S.F. Shatilov, N.I. Gez, G.V. Rogova, I.A. Bim, va boshqalar maxsuldor ishlashdi. O'zbekiston o'zbek maktablarida chet tillar o'qitish xususiyatini hisobga olgan ilmiy ishlar, dissertatsiyalar, dasturlar va darsliklar yaratigan. Chet tillar o'qitish metodikasining o'ziga xos shug'ullanish mavzusi, tizimi, ob'ekti, ilmiy tadqiqot metodlari, metodik tushunchalari va metodologik asosga ega. Bugungi kunda chet tilini o'rganish zamonaviy talim-tarbiya tizimi va milliy meros asosida har bir darsni o'ziga xos, takrorlanmas darajada tashkil etish ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yondoshish zarurligini talab qiladi. Talim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan

ta'minlash zarurati "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir. Respublikamizning barcha ilm maskanlari: maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan yoshlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir. O'quvchi o'z fikrini erkin bayon etishi, mavzuni guruh yoki jamoa ichida yoritib berishida esa ilg'or texnologiyalarning o'rni katta ahamiyatga egadir. Binobarin, chet tili va uning metodikasini o'qitishning maqsad va vazifalari jamiyatimiz va davlat manfaatlari talablariga, unib-o'sayotgan yosh avlod talablariga mos kelishi va javob berishi lozim. Innovatsion texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, "Aqliy hujum" va "Pinboard" kabi metodlar orqali talaba-yoshlar saviyasi va chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. "Aqliy hujum" metodi o'rganuvchilarning bilim saviyalarini sinab ko'rishga mo'ljallangan metod hisoblanadi. Bu usul bilan talabalarning diqqatini mashg'ulot mavzusiga qaratish uchun o'qituvchi tomonidan savol-javob tashkil qilinadi. Bu jarayonda savollar turlicha, mantiqan, qiziqarli yoki ilmiy-siyosiy jihatdan mavzuga aloqador bo'lishi lozim. Ushbu savol-javob talaba - yoshlar faolligidan kelib chiqqan holda 5-10 daqiqani tashkil etishi mumkin. "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, mashg'ulotlar tashkil qilinganda o'rganuvchilar turli savollarga javob izlaydilar, muammoli vaziyatlardan chiqib ketish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladilar, vaziyatdan qay tarzda chiqib ketish yo'llarini qidiradilar. Bu esa ularning darsga va yangi mavzuga qiziqishning ortishiga, faollashuviga olib keladi. Bu metoddan foydalanilgan paytda har bir talabaning bergan javobi inobatga olinadi. Asosiysi, har bir talabadan o'z javobini asoslashi va himoya qilishi so'raladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1".Chet tillarni o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari", o'quv qo'llanma. A.A. Haydarov.

2. <https://cyberleninka.ru/article/n/chet-til-oqitish-metodikasida-zamonaviy-metodlar>. Internet saytlari.